



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona  
va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, dastlabki ma'lumot.)


2020-yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2156,7 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga o'sishni ta'minladi.

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilot  
xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'ratacha oylik ish haqining  
o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda:**

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)


	<b>Korxona va tashkilotlar soni</b>	<b>101,7</b>
	<b>Xodimlar soni</b>	<b>100,3</b>
	<b>Ish haqi fondi</b>	<b>121,6</b>
	<b>O'ratacha oylik nominal hisoblangan ish haqi</b>	<b>121,3</b>

**Shaharlar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlarining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %:**  
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari.)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilorlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm:**

(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari.)






**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'ratacha oylik ish haqining o'zgarishi:**  
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik:	Xodimlar soni, kishi:	Ish haqi fondi, mln.so'm:	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:
<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>	<b>3130</b>	<b>124412</b>	<b>1 609 900,1</b>	<b>2156,7</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	36	14823	236 678,0	2551,0
Qurilish	12	1224	24 541,1	2487,7
Savdo	22	2009	26 231,8	2111,0
Tashish va saqlash	10	2393	61 561,4	4265,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	61	460,3	1253,7
Axborot va aloqa	16	785	11 374,2	2402,6
Bank, sug'urta va vositachilik	29	2528	79 946,5	4988,7
Ta'lim	1036	57906	635 376,0	1808,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	61	23269	268 496,6	1900,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	155	1989	19 381,5	1574,5
Boshqa faoliyat turlari	1743	17425	245 852,7	2313,6

**Ish haqi.** 2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida 1036** ta muassasada **57906** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **635 376 002,3** ming. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1808,6** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga o'sdi.






## Ta'lif sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lif sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri – 133,8 % va Xonqa tumani – 101,6 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Xiva shahri -91,0 %, Qo'shko'pir - 89,3 %, Gurlan - 88,6% hamda Yangiariq – 88,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






## Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020-yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Gurlan - 71,6 %, Xonqa - 68,9 %, Shovot - 67,5 %, hamda Hazorasp - 61,7 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Tuproqqa'l'a tumani - 148,0 %, Bog'ot tumani- 124,7 %, Qo'shko'pir tumani - 114,5 % hissasiga to'g'ri kelgan.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2020-yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va  
kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari:)**



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Qo'shko'pir tumani -124,1 %, Bog'ot tumani -119,8 % va Xonqa tumani -108,8 % hissasiga to'g'ri kelgan.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Hazorasp - 93,4 %, Tuproqqal'a - 90,2 %, Yangibozor - 88,8 % hamda Shovot - 81,0 % tumanlarida kuzatildi.






## Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar- iyun ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'r radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida - 131,6 % shuningdek, viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar Xonqa - 110,5 % tumanida kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Yangibozor - 78,3 %, Gurlan - 63,2 %, Xiva - 48,3 % hamda Qo'shko'pir - 38,8 % tumanlarida kuzatildi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





**Bank, sug‘urta va vositachilik faoliyati bo‘yicha  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2020-yil yanvar- iyun; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub‘ektlaridan tashqari)**

**O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda  
Urganch shahar  
5066,3**




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko‘rib chiqilganda eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida - 101,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi viloyatning ba’zi tumanlarida viloyat o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Ish haqining sezilarli past ko‘rsatkichlari Yangiariq tumani - 37,1 %, Yangibozor tumani - 31,8 %, Gurlan tumani - 31,5 % hissasiga to‘g‘ri keldi.

**O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda:**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.**

(2020-yil yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

Xorazm viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar-iyun oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlash sohasida 80,6 %, qurilishda 58,7 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 45,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 21,0 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida 38,0 % kuzatildi.



**Sanoat sohasida bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

**Sanoat** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning aprel oyida 2572,8 ming so'mni, may oyida 2627,5 ming so'mni, iyun oyida esa 2566,9 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga o'sdi.



**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:***(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari)*

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning aprel oyida 1714,3 ming so'mni, may oyida 1664,3 ming so'mni, iyun oyida esa 1735,8 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.


Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga o'sdi.

**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:***(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari.)*

**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyatida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning aprel oyida 4708,1 ming so'mni, may oyida 6092,0 ming so'mni, iyun oyida esa 4586,9 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,0 % ga o'sdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati, %:***(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)*

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal'a tumanida 2951,9 ming so'mni (136,9 %), Urganch shahrida 2688,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (124,7 %), tashkil etgan bo'lsa, Qo'shko'pir tumanida 1769,6 ming so'mni (82,1%), Hazorasp tumanida 1745,2 ming so'mni (80,9 %), Gurlan tumanida 1731,2 ming so'mni (80,3 %), Yangibozor tumanida 1696,9 ming so'mni (78,7 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:**

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ktlariidan tashqari, ming so'm.)

	2019-yil yanvar- iyun.	2020-yil yanvar- iyun.	O'sish sur'ati, %.
--	---------------------------	---------------------------	--------------------

<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1778,5</b>	<b>2156,7</b>	<b>121,3</b>
Urganch sh.	2056,9	2688,4	130,7
Xiva sh.	1583,1	1791,0	113,1

tumanlar:

Bog'ot	1592,7	1895,3	119,0
Gurlan	1449,3	1731,2	119,5
Qo'shko'pir	1475,1	1769,6	120,0
Urganch	1845,9	2028,4	109,9
Hazorasp	1537,9	1745,2	113,5
Tuproqqal'a	2672,3	2951,6	110,5
Xonqa	1689,1	1943,4	115,1
Xiva	1616,3	1826,9	113,0
Shovot	1474,8	1821,3	123,5
Yangiariq	1680,2	1791,6	106,6
Yangibozor	1511,2	1696,9	112,3



*Ma'lumot uchun:  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
“2020- yil uchun O'zbekiston  
Respublikasining davlat byudjeti  
to'g'risida”gi Qonuni ijrosini ta'minlash  
chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga  
muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan  
bosholab mehnatga haq to'lashning eng  
kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.*



*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi.*